



XORAZMSHOX OTSIZ

O`ktamov Tohirjon G`ayrat o`g`li

Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo`nalishi 2- kurs talabasi

[Tel: +998943519559](tel:+998943519559)

E-mail: oktamovtohir2@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazmshohlarning Anushteginiylardan bo`lgan hukmdori Otsizning hokimiyat tepasiga kelish jarayoni va Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishi poydevori bo`lganligi haqida ma`lumot beriladi.*

Kalit so`zlar: *Xorazm, anushteginiylar, saljuqiylar, sulton Sanjar, xorazmshoh, Qutbiddin Muhammad, Otsiz, sarkarda, xalifa Mustarshid, ziddiyat, mustaqil siyosat.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о процессе прихода к власти Оциза, правителя хорезмшахов из Ануштегинов, и об основании формирования Хорезма как независимого государства.*

Ключевые слова: *Хорезм, Ануштегинцы, Сельджуки, Султан Санджар, Хорезмшах, Кутбиддин Мухаммад, Оциза, военачальник, халиф Мустаршид, конфликт, независимая политика.*

Annotation: *This article provides information about the process of coming to power of Otsiz, the ruler of the Khorezmshahs from the Anushtegins, and the foundation of the formation of Khorezm as an independent state.*

Key words: *Khorezm, Anushtegins, Seljuks, Sultan Sanjar, Khorezmshah, Qutbiddin Muhammad, Otsiz, warlord, caliph Mustarshid, conflict, independent politics.*

Xorazmshoh Otsiz – to`liq ismi Otsiz ibn Qutbiddin Muhammad ibn Anushtegin bo`lib, 1097 – 1156-yillarda yashagan. 1127 – 1156-yillarda esa Xorazmda hukmronlik qilgan.[3]

Otsizning otasi Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad 30 yil davomida Xorazmda hukmronlik qiladi. U vafotigacha ya`ni 1127-yilgacha Sulton Sanjarga sodiq fuqaroligini izhor qilib, Sulton xazinasiga xiroj, o`lponlarni o`z vaqtida to`lab turdi. Xirojlarni Qutbiddin Muhammad o`zi yoki o`g`li Alouddin Muhammad Otsiz orqali yetkizib berar edi. Bu bilan Xorazmshoh Sulton Sanjarning oliy hukmdorligini e`tirof etardi. Shu sadoqati uchun ham Sulton Sanjar Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadning vafotidan so`ng toj-u taxtni uning o`g`li Otsizga topshirdi. Alouddin Otsiz otasining taxtiga o`tirganida 29 yoshda edi. U ham, otasiga o`xshab Sulton Sanjarning poytaxti Marvda yaxshi ta`lim olgan edi. Otsiz musulmonlar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

podshohiga xos islom dini va ilohiyot olimlariga homiylik qilishdan tashqari turli fanlar va san'at ahlini qadrlar, o'zi ham forscha qasida va ruboiylar yozar, juda ko'p buyuk shoirlarning baytlarini yoddan bilar edi. U Xorazm aholisiga g'amxo'r, adolatli podsho bo'ldi. Bir manbada aytilishicha, "Fuqarolar Xorazmshoh Otsizni yaxshi ko'rar, uning zamonida fuqarolar xavf - xatardan holi, tinchlik va osoyishtalikda, adolatda yashar edilar". [1.B- 9,10]

Otsiz buyuk sarkarda ham edi. Janglarda doim tolei kulib boqar, Sulton Sanjar xizmatida juda ko'p g'alabalarga erishib, yuksak izzat-hurmat qozongan edi. Bir kuni Sulton Sanjarni o'limdan ham qutqarib qolganidan so'ng obro'yi yanada ziyoda bo'ldi. Bu voqea 1130-yilda (hijriy 524) bo'lgan edi. Sulton Sanjarning barcha harbiy yurishlarida Otsiz uning yonida bo'lgan. Sulton boshqa bir jiyani Ma'sud ibn Muhammad Topar (1133-1152) bilan jang qilganida Otsiz qo'shinning javongori chap qanotiga qo'mondonlik qilgan edi.[1.B -10] Sulton Sanjar va Ma'sud o'rtasidagi bu jang hijriy 526-yilning 8-rajabida (1132-yil 26-may) Hamadon yaqinidagi Doy-Marg degan mavzesida yuz bergan va Sulton Sanjar g'alabasi bilan tugallangan edi.

Shu vaqtlarda xalifa Mustarshid zamonida Bog'dod bilan Xorazmshohlar o'rtasida doimiy aloqalar kuchaydi. Xalifa Saljuqiylarning kuchayib ketishidan xavfsirayotgan edi va Xorazmshoh Otsiz bilan ittifoqchi bo'lishi kerak edi. Shu ittifoqni tuzish va uni kuchaytirish maqsadida Xalifa Mustarshid hijriy 528-yili (1133-yil) Xorazmshohga elchilar bilan birga faxriy kiyim-kechaklar yuboradi (Ibn al - Javziy). Qimmatbaxo kiyim-kechaklar sovg'a qilish bilan xalifa Mustarshid Xorazmshoh Otsizning Sulton Sanjarga qarshi kurashini ham qo'llab-quvvatlashini bildiradi. Xorazmshoh Otsizning saroydagi mavqeyi baland bo'lganidan uni ko'rolmagan maliklar va amirlar Otsiz haqida turli ig'volar to'qib, uni Sulton Sanjarga qarshi gij-gijlab, ularning orasini buzmoqchi bo'ldilar. Sulton Sanjarning muomalasi o'zgarib qolgan, buni Otsizning o'zi ham sezib turardi. Bu ayniqsa, G'aznaviylar podshosi Bahromshohning Sulton Sanjarga qarshi isyoni vaqtida (hijriy 529-yil, zul-qa'da, - 1135 - yil iyul - avgust) yaqqol sezildi. [1.B-11]

Dastavval otasi kabi Saljuqiylar xonadoniga (1128 - 1138-yillarda, 10 yil davomida) xizmat qilgan Otsiz o'z mavqeyini ancha mustahkamlab olganidan keyin, raqobatchilarining ham zaiflashib qolganini sezib, Saljuqiylarga qaramlikdan bosh torta boshlaydi. Saljuqiylarga tobelikda bo'lgan Sirdaryoning quyi oqimidagi turklarning yerlarini Jandgacha (Kaspiy dengizi bo'ylarigacha) bosib oladi. [1.B -12]

Otsiz Sulton Sanjarning ruxsatisiz avvalo, Jand va Mang'ishloqni egallab, Turkistonning ichkari tumanlariga yurish qilish bilan o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan. Shundan so'ng o'zini mustaqil deb e'lin qilgan. Ammo 1138-yil Hazorasp yaqinida Sulton Sanjar qo'shinidan mag'lubiyatga uchraydi.

Shunday urushlarning birida ikki o'rtada sulh shartnomasi tuzilishi kerak edi. "O'zaro sulh shartnomasiga ko'ra, Xorazmshoh Otsiz Sulton Sanjarga tobelik





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bildirib, o'rta asr odatiga ko'ra uning oyog'i ostidagi yerni o'pib, ta'zim etishi shart edi. Lekin Xorazmshoh Otsiz bu kabi tobelik urfini bajarmadi. Sulton Sanjar huzuriga mulozimatga (xizmatga) keldi va otdan tushmasdan unga salom berdi. Bu ham yetmaganidek, Xorazmshoh Otsiz Sulton Sanjar bilan uchrashuv joyini birinchi bo'lib tark etdi. Sulton Sanjar Xorazmshoh Otsizning bu "beodobligidan" jahli chiqsa ham, yaqinda o'zi unga shafqat - muruvvat qilgani uchun ahadini o'zgartirdi. Sulton Sanjar bunga norozilik bildirmay, Marvga qaytib ketdi". [2.B -280]

Sulton Sanjarning mulozimlari Otsizning bu harakatini keskin qoralab, Xorazmshoh Otsizni Sultonga gij-gijlay boshladilar. Lekin Sulton Sanjar Otsizning xizmat paytlaridagi yordamlari evaziga unga qarshi deyarli hech narsa qilmaydi.

Ammo keyinchalik Otsiz Sulton Sanjarga yana o'z itoatkorligini bildiradi. 1153-yilda o'g'uzlar Sulton Sanjarni asir oladi. Bu safar ham Xorazmshoh Otsiz yordamga borib, Sultonni qutqaradi. [2.B- 281]

Ko'p o'tmasdan Sulton Sanjar qiz qarindoshining o'g'li Rukniddin Mahmud ibn Muhammad Bug'roxonni saltanat taxtiga o'tqazdi. Rukniddin Muhammad eski do'stligiga tayanib, Otsizga elchi yuborib o'g'uzlarning tazyiqini yengillashtirish uchun undan yordam so'radi. Shu tufayli Xorazmshoh Shahristonga yo'l oldi. Yo'lga chiqishdan avval Elarslonni yoniga oldi va boshqa o'g'li Xitoyxonni o'zining vakili sifatida Xorazmda qoldirdi. Shahristonga borguncha mamlakatlaridan mahrum bo'lib, tinch turmushi buzilgan amirlarni yoniga chaqirdi.

O'sha paytda amir Imodiddin Ahmad ibn Abubakr Qamajga ming otliqni yuborib, Sulton Sanjarni ov joyida ushlab, Termizga olib kelingani xabari keldi. Bu xabarni Shahristonda bo'lgan har bir kimsa xushnudlik bilan qabul qildi. O'sha vaqtda Xorazmshoh Nasoda Mahmudxonni va o'ziga bo'sunmagan boshqa amirlarni jazolayotgan edi. Bu amirlar qilgan xatti-harakatlaridan pushaymon bo'lib, Aziziddin Tug'roiyni elchi qilib Otsizga yubordi va afv etishlarini so'radi. Ular bilan kelishib olgan Otsiz u yerdan Ustuvonning Xabushon qasabasiga keldi. Bunga ko'ra, uning ketidan xoqon Rukniddin ham Nishopurdan u yerga bordi. Ikkalasi o'sha yerda qolib, 3 oy ichida suhbatlashib, ularga qarshi chiqqanlarni tobe qilishga kirishdilar. Otsiz tomonidan tayyorlangan ziyofatlarga xoqon Rukniddin ham taklif qilindi. Ular haqida Vatvot yozgan qasidasining shunday baytlari bor : „ Ikki barokatli yulduzning bir burjda bo'lgani kabi ikki qutlug' podshoh saroyda bir qarorga keldilar “. U ziyofatdan qisqa vaqt o'tganidan keyin Xorazmshoh xastalandi. Bir kuni yotgan yeridan qulog'iga g'oyibdan Qur'oni Karimning „ Xech kim ertaga nima bo'lishini bilmaydi va hech kim qayerda o'lishini ham bilmaydi“ oyati eshitildi. U buni yomonlikka yo'ydi. Xastaligi borgan sari tobora orta boshladi.[2.B -282]





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Xorazmshohlar davlatini mustaqil siyosat olib boradigan davlatga aylantirgan xorazmshoh Otsiz 1156-yil 30-iyulida (hijriy 551 - yil jumadil-oxir oyining 9 - kunida) Habushon (hozirgi Kuchan) shahrida 59 yoshida vafot etgan. [2.B - 283]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xorazmning davlatining mustaqilligi Xorazmshoh Otsiz ibn Qutbiddin Muhammad nomi bilan bog'liq. Dastavval, Otsiz ibn Qutbiddin Muhammad turkman va qipchoq qabilalarini o'ziga bo'ysundiradi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo bo'ylari va Mang'ishloq yarimorolini egallaydi. Otsiz Kaspiy dengizi sohilaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buniyodov Z. Anushtagin – Xorazmshohlar davlati (1097 - 1231). – T., 1998-yil.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015-yil
3. O'z ME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000-yil.
4. uz.wikipedia.org/wiki/Otsiz_Xorazmshoh.

